

**GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH SOTSIAL MUAMMO SIFATIDA****X.A.Yulbarsova***Farg'ona davlat universiteti
sotsiologiya kafedrasida dotsenti,***D.Rustamova***sotsiologiya yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlashdagi sotsial muammolar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida bo'lib, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, shuningdek xotin-qizlarga berilayotgan qator imkoniyat va imtiyozlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, feminizm, assotsial, sotsial, sufragistka, status, diskriminatsiya, shisha shift.

Gender tengligini ta'minlash jamiyatda ayol va erkaklarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohadagi tengligini anglatadigan jarayon hisoblanadi. Shunga ko'ra, jinsga asoslangan kamsitilishni, ayollarga nisbatan zulm va zo'rvonliklarning barcha turdagi ko'rinishlarini bartaraf etish butun jahondagi ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Buni XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi ayollarning gender tengligi uchun bo'lgan harakatlarida kuzatishimiz mumkin. Biroq bu jarayon barcha jamiyatlarda ham bir xil kechmadi. Ya'ni g'arbda bu ayollarning mehnat faoliyatiga asoslangan noroziliklar, sufragistkalarining harakatlarida ko'ringan bo'lsa, sharqda, aniqrog'i bizning jamiyatda bu birinchi navbatda paranjining yechilishi bilan boshlanganligini aytishimiz mumkin.

1980-yillardan boshlab gender sohasida "shisha shift" degan atama mavjud

bo'lib, asosan ayollarning kasb faoliyatidagi diskriminatsiyaga nisbatan qo'llangan. Ushbu cheklovlar ta'sirida ayollar ko'plab dilemmalar qarshisida qoldilar. Gender masalasi shunisi bilan muhimki, u jamiyatning barqarorligini va farovonligini ta'minlaydi.

Shu bois mamlakatimizda bu jarayon siyosat darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasining X-bob, 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng xuquqlidirlar"¹⁸ deya ta'kidlangan. Shuningdek ushbu qonun ijrosini ta'minlashda ko'plab huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan bo'lib, ular bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi o'rni va rolini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar ijrosi sanaladi. Jumladan, mamlakatimizda 2019 yilning 2 sentyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan

¹⁸ O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi





ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, “gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati”¹⁹ tushuniladi. Demak gender tengligi bu faqat ayollarning ustunligini ta'minlash emas, jamiyatdagi erkak va ayol jinsining teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi. Umuman olganda gender tenglik bu, faqat ayollarni himoya qilish emas, balki, erkaklarni ham himoya qiluvchi vositadir. Lekin hozirda jamiyatimizda ushbu holat asosan ayollarning sotsial rollari bilan bog'liqdir. Ushbu jarayonda ayollarning o'z statuslariga mos faoliyatdan foydalana olmasliklari, hamda foydalanishda cheklovlarga duch kelishlari kuzatiladi. Bu holat o'z o'rnida jamiyatning butun tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zero jamiyatimiz aholisining 49% ayollar tashkil qiladi. Demak ijtimoiy hayotda ayollarga nisbatan bo'layotgan ba'zi cheklovlarni ayrim sotsial jarayonlarda kuzatadigan bo'lsak, bu jarayon aynan oilada farzand dunyoga kelishidan boshlanadi. Bunda qiz bola sotsial muhit ta'sirida maxsus “dastur” asosida ijtimoiylashtiriladi. Ya'ni qiz bola yoshligidan boshlab bo'lajak uy bekasi va farzand tarbiyachisi sifatida shakllanishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu holat aksariyati ma'lum stereotiplar, an'analar asosida shakllanadi. Va bu stereotip cheklovlarga ko'ra, qiz bolaning qanday maktabda o'qishi, qanday kasbni tanlashi, hattoki turmush qurish masalasi ham belgilab beriladi. Ushbu holatlar esa, jamiyatda, ba'zi ayollar tomonidan ham me'yoriy deb qabul qilinadi. Buning natijasida qizlar o'z orzu-istaklaridan voz kechadilar. Va afsuski, qizlarning taqdirini hal qiluvchi qarorlarda, qizlarning ishtiroki past darajada.

Shuningdek, kasb tanlash borasida ham ayollarga nisbatan qiyin kichadi. Go'yoki, ayollar uchun sanoqli kasblar mavjuddek ko'rinadi, yoki belgilab beriladi. Masalan, hamshiralik, o'qituvchilik, tikuvchilik kabilar shular jumlasidandir. Jamiyatning boshqa sohalarida esa ayollarning orni nisbatan kamdir. Aynan shu holat ham sotsial munosabat ta'siridagi ijtimoiy hodisadir.

Jahon statistikasiga ko'ra gender tenglik barqaror mamlakatlarda, aniq fanlardan erkak va ayollarning natijalari tengdir. Bunga misol qilib Skandinaviya davlatlarini ko'rishimiz mumkin. Gender masalasida muammoga ega davlatlarda esa, bu hol boshlang'ich sinflarda qiz va o'g'il bolalar teng bo'lsa, yuqori sinflarda aniq fanlarda, ilmiy sohada o'g'il bolalarning natijalari qiz bolalarning natijalaridan ancha yuqorilab ketishini ko'rimishimiz mumkin.

Afsuski assotsial jarayonda, aksariyat, qizlar ta'limiga kam e'tibor qaratiladi. Qizlar asosan maishiy yumushlar uchun “dasturlanadilar”. Aslida jamiyatda ayollarning ta'limi juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki ayol eng avvalo bo'lajak onadir. Onalar esa millatning tarbiyachisi hisoblanadi. Bu masala bugungi kunda dolzarbli bo'lib, mamlakatimizda ayollar ta'limi uchun ko'plab imkoniyatlar va imtiyozlar berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va

¹⁹ «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-562- sonli, 02.09.2019y.





tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmonining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Farmonga muvofiq, 2022 yil 1 sentyabrdan byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib byudjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi belgilab qo'yildi. 2022/2023 o'quv yilidan:

- OTM, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish uchun banklarga byudjetdan har yili 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi;

- davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi;

- xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratiladi;

- har yili 2100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to'lab beriladi;

- mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMlariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi;

- davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib boriladi²⁰.

Mamlakatimizda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat, ayollarga yaratilgan bunday imkoniyat va sharoitlar natijasida, jamiyatning barcha sohalarida xususan boshqaruv sohalarida ham ayollarning salmog'i ortib borayapdi. Natijada hozirda O'zbekiston Oliy Majlisi qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini ayollar tashkil etadi. Senatda esa bu ko'rsatkich qariyb 25 foizga yetgan. Demak, bugungi kunda ayollarimiz jamiyatning barcha sohalarida ijtimoiy faol bo'lib jamiyat rivojiga va oilasi farovonligiga munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi

2. «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'RQ-562- sonli, 02.09.2019y.

²⁰ <https://review.uz/oz/post/magistraturada-oqiydigan-barcha-xotin-qizlarning-kontrakti-tolab-beriladi>





3. <https://review.uz/oz/post/magistraturada-oqiydigan-barcha-xotin-qizlarning-kontrakti-tolab-beriladi>

4. Юлбарсова Х. А. (2016). Формирование коммуникативной компетенции будущих учителей в процессе их подготовки к технологии эффективного общения. *Молодой ученый*, (20), 756-757.

5. Yulbarsova K.A. (2020). SCIENTIFIC RESEARCH METHOD AND MEANS IN SOCIAL WORK. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 206-213.

6. Юлбарсова Х. А. (2020). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НЕОБХОДИМАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Интернаука*, 23(152 часть 2), 54.

7. Юлбарсова, Х. А. (2015). Теоретическая сущность и структура коммуникативной компетентности и особенности ее формирования. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).

8. Юлбарсова, Х. А. (2021). ВОЛОНТЁРСТВО-ЭТО ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ. *Человек. Наука. Социум*, (1), 228-237.

9. Юлбарсова, Х. А. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *East European Scientific Journal*, 4(3 (67)), 36-40.

10. Юлбарсова, Х. А. (2021). ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Наука сегодня: вызовы и решения [Текст]: материалы меж*, 61.

11. Х.А.Юлбарсова. КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НЕОБХОДИМАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ-БАКАЛАВРА/ Актуальные научные исследования в современном мире/ 2017, 12-3, 84-88

